

Buvayda tumani hokimligida qonunchilik xujjatlarini “Edo.ijro.uz” tizimida ijro etilishi
MALʼUMOT

23.02.2026

Tuman hokimligida joriy yilning 27-aprel kuniga qadar “Edo.ijro.uz” tizimida kelib tushgan topshiriqlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda viloyat hokimligidan kelgan topshiriqlar o‘z muddatida belgilangan tartibda ro‘yxatga olinmoqda. Topshiriqlarni bajarilishi ustidan kunlik nazorat qilinmoqda va bajarish muddatlari bo‘yicha ijrochilarga yozma hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri og‘zaki ravishda eslatmalar kiritilmoqda.

Yuqoridagilarga ko‘ra tuman hokimligida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, 2026 yilning shu kuniga qadar kelib tushgan hujjatlar tahlil qilinganda:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari 52 ta bo‘lib shundan: Qarorlar – 31 ta Farmonlar – 14 ta hamda farmoyishlar – 2 ta;
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror, bayon, topshiriqlari– 63 tani tashkil etadi.
3. Farg‘ona viloyat hokimligining qaror va farmoyishlari 49ta, bo‘lib shundan: 45 ta qaror hamda 4 ta farmoyishlari tumanda ijro uchun qabul qilindi.

Tuman hokimligi tomonidan mazkur Farmon, qaror va farmoyishlar ijrosini ta‘minlash maqsadida jami 41 ta qaror va 5 ta farmoyishi qabul qilindi.

Shuningdek, Tuman hokimligiga kelib tushgan Farmon, qaror va farmoyishlar quyidagi komplekslarga ijro uchun yo‘naltirildi hamda qaror va farmoyishlar qabul qilindi.

- Iqtisodiy kompleksda – 14 ta qaror;
- Qurilish kompleksida –5 ta qaror.2 ta farmoyish;
- Qishloq xo‘jaligi kompleksida – 9 ta;
- Investitsiya kompleksida – 6 ta qaror;
- Ijtimoiy kompleksiga – 16 ta qaror, 5 ta farmoyish;
- Umumiy bo‘limda – 3 ta qaror
- Tashkiliy kadrlar guruhida-2 ta qaror ;

Shu bilan birgalikda tuman hokimligida 2026 yil 27 aprel holatiga “Edo.ijro.uz”tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlar soni 1465 ta bo‘lib, shundan 872 ta hujjat o‘z muddatlarida, 38 ta hujjat muddatidan kech bajarilgan. 622 ta hujjat ish jarayonida 4ta hujjat ijrosi ta‘minlanmay bugungi kunda qarzdorlikni tashkil etib kelmoqda:

Yuqoridagi ijrosi ta‘minlanmagan 4 ta xujjat N.Ibroximovga to‘g‘ri keladi

Tuman hokimligi
bosh mutaxassisi:

B.Boyqo‘ziev